O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

TASDIQLAYMAN
Guliston davlat pedagogika instituti
Rektori _____ J.X.Karshibayev
29-avgust 2025-yil

TA’LIM DASTURI DOIRASIDA SIFATNI TA’MINLASH SIYOSATI

Guliston - 2025

B.D.Ergashov Guliston davlat pedagogika instituti Ta’lim sifatini ta’minlash bo‘limi boshlig‘i, p.f.f.d (PhD) dotsent

T.Sh.Muhammadiyev Guliston davlat pedagogika instituti Ta’lim sifatini ta’minlash bo‘limi bosh mutaxassisi

Mazkur “Ta’lim dasturi doirasida sifatni ta’minlash siyosati” Guliston davlat pedagogika instituti 2025 yil “№ 1-son” Kengash yig‘ilishida muhokama qilingan va ma’qullangan.

I. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Mazkur hujjat Guliston davlat pedagogika institutida (bundan buyon Institut) amalga oshiriladigan barcha bakalavr va magistratura ta’lim dasturlari doirasida sifatni ichki ta’minlashning tartib-qoidalari, jarayonlari va mexanizmlarini belgilaydigan tizimli hujjat hisoblanadi.

1.2. Hujjat institut miqyosidagi sifatni ta’minlash siyosatiga asoslanadi va uni dastur darajasida aniqlashtiradi. Ikkala hujjat birga qo‘llanilib, bir-birini to‘ldiradi.

1.3. Har bir ta’lim dasturi uchun ushbu universal siyosat asosida dasturga xos ichki hujjatlar (baholash qoidalari, sillabus standarti va boshqalar) ishlab chiqiladi.

1.4. Hujjat barcha ta’lim dasturlari bo‘yicha kafedra mudirlari, dastur koordinatorlari, professor-o‘qituvchilar va talabalar uchun majburiy hisoblanadi.

II. MAQSAD VA QAMROV

2.1. Siyosatning maqsadi ta’lim dasturi darajasida sifatni ichki ta’minlashning tizimli, izchil va hujjatlashtirilgan mexanizmini barcha ta’lim dasturlari uchun yagona shaklda joriy etish.

2.2. Quyidagi vazifalar belgilanadi:

2.2.1. ta’lim dasturlarini ishlab chiqish, amalga oshirish va qayta ko‘rib chiqishda sifat mezonlarini ta’minlash;

2.2.2. o‘quv natijalari, o‘qitish usullari va baholash tizimining konstruktiv muvofiqlashish tamoyiliga asoslanishini kafolatlash;

2.2.3. manfaatdor tomonlar talabalar, ish beruvchilar, bitiruvchilar va soha mutaxassislari ishtirokini tizimli ta’minlash;

2.2.4. monitoring natijalari asosida dasturlarni doimiy takomillashtirish;

2.2.5. akkreditatsiya talablariga mos keladigan hujjatlashtirish tizimini yuritish.

III. SIFATNI TA’MINLASH JARAYONI: TA’LIM DASTURI TSIKLI

Har bir ta’lim dasturi quyidagi to‘rt bosqichli sifat tashkili asosida boshqariladi:

Bosqich	Mazmuni va amalga oshirish tartibi
REJALASHTIRISH	O‘quv natijalari aniq, o‘lchanadigan va tekshiriladigan shaklda belgilanadi. Mehnat bozori tahlili o‘tkaziladi. O‘quv reja va fan dasturlari DTS, akkreditatsiya mezonlari va xalqaro me’yorlar asosida ishlab chiqiladi. Manfaatdor tomonlarning ehtiyojlari o‘rganilib, dasturga kiritiladi.
AMALGA OSHIRISH	O‘quv jarayoni tasdiqlangan reja asosida tashkil etiladi. O‘qituvchilar fanlarni belgilangan sillabus va baholash mezonlariga muvofiq olib boradi. Talabalar amaliy, seminar va mustaqil ta’lim orqali faol jalb etiladi. Moddiy-texnik va axborot resurslari ta’minlanadi.
MONITORING VA BAHOLASH	Har semestr yakunida o‘quv natijalari tahlil qilinadi. Talabalar so‘rovnomasi o‘tkaziladi. Ochiq darslar va o‘zaro kuzatuv amalga oshiriladi. Ish beruvchilar va bitiruvchilarning fikr-mulohazalari to‘planadi. Kamchiliklari bo‘lgan sohalar aniqlanadi.
TAKOMILLASHTIRISH	Monitoring natijalari asosida chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqiladi. O‘quv reja, fan dasturlari va sillabuslarga zarur o‘zgartirishlar kiritiladi. Kadrlar salohiyati oshiriladi. Yangi usul va texnologiyalar joriy etiladi. Natijalar hujjatlashtiriladi va keyingi shakilga asos bo‘ladi.

IV. TA’LIM DASTURINI ISHLAB CHIQISH VA TASDIQLASH

4.1. Yangi ta’lim dasturini ishlab chiqishda quyidagi tartib amal qilinadi:

4.1.1. mehnat bozori va ish beruvchilar ehtiyojini tahlil qilish;
4.1.2. o‘quv natijalari va malaka tavsifini shakllantirish (DTS va milliy malaka ramkasiga muvofiq);
4.1.3. o‘quv reja loyihasini ishlab chiqish va kafedra muhokamasi;
4.1.4. manfaatdor tomonlar bilan maslahatlashish (ish beruvchilar, soha mutaxassislari);
4.1.5. O‘quv-uslubiy Kengash tomonidan tasdiqlash;
4.1.6. DTS va akkreditatsiya mezonlariga muvofiqligini TSTB tomonidan tekshirish;
4.1.7. ta’lim dasturini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish;
4.1.8. institut Kengashi tomonidan tasdiqlash.
4.2. Amaldagi ta’lim dasturlari kamida ikki yilda bir marta majburiy ko‘rib chiqishdan o‘tadi. Muhim o‘zgartirishlar (o‘quv reja, malaka talablari) institut Kengash tomonidan tasdiqlanadi.
4.3. Har bir ta’lim dasturi uchun quyidagi hujjatlar to‘liq shakllantiriladi va yuritiladi:
4.3.1. o‘quv reja;
4.3.2. barcha fanlar bo‘yicha fan dasturlari va sillabuslari;
4.3.3. baholash siyosati (ushbu hujjat);
4.3.4. malaka talablari va o‘quv natijalari;
4.3.5. 5 yillik istiqbolli reja.

V. BAHOLASH TIZIMI

5.1. Umumiy qoidalar

Baholash tizimi konstruktiv muvofiqlashish tamoyiliga asoslanadi:

5.2. Nazorat turlari va ball taqsimoti

Nazorat turi	Ulushi	Mazmuni
Oraliq nazorat (ON)	5 ball	Yozma imtihon yoki test, amaliy ko‘rsatuv (fanga qarab)
Mustaqil ta’lim (MT)	5 ball	Loyihalar, tadqiqot vazifalari, taqdimotlar
Yakuniy nazorat (YaN)	5 ball	Yozma imtihon, og‘zaki mudofaa yoki amaliy ko‘rsatuv (fanga qarab)
JAMI	**5 ball**	

5.3. O‘tish chegaralari va shartlari

Ko‘rsatkich	Talab
Yakuniy nazoratga yo‘l qo‘yilish sharti	ON + MT bo‘yicha (5 ballik) to‘plangan bo‘lishi shart
Fanni o‘zlashtirish uchun minimal ball	Jami (5 ballik) (shu jumladan YaN)
Baho chegaralari	“A’lo” (5), “Yaxshi” (4), “Qoniqarli” (3), “Qoniqarsiz” (2)
Akademik qarzdorlik	5 ballik bahodan kam to‘plagan talaba qayta topshirish huquqiga ega (amaldagi nizomga muvofiq)

5.4. Baholashning adolatliligi va shaffofligi

5.4.1. Baholash mezonlari semestr boshida talabalar bilan sillabusda tanishtiriladi;

5.4.2. Baholash jarayonida o‘qituvchi qo‘shimcha tushuntirish berishi shart;

5.4.3. Talabaning baholash natijasiga e’tiroziga ko‘rib chiqish tartibi amaldagi nizom asosida amalga oshiriladi;

5.4.4. Yakuniy nazoratni tekshirish tartibi va komissiyadagi tarkib kafedra tomonidan belgilanadi.

VI. O‘QUV NATIJALARI VA KONSTRUKTIV MUVOFIQLASHISH

6.1. Har bir ta’lim dasturi bo‘yicha o‘quv natijalari (O‘N) malaka talablari va DTS asosida aniq, o‘lchanadigan va tekshiriladigan shaklda belgilanadi.

6.2. Konstruktiv muvofiqlashish tamoyiliga ko‘ra, dastur darajasidagi O‘N va fan darajasidagi ON o‘zaro uyg‘un bo‘lishi, baholash usullari esa bu natijalarni o‘lchashi shart.

6.3. O‘quv natijalari matritsasi (fanlar va O‘N o‘rtasidagi bog‘lanish jadvali) har bir ta’lim dasturi uchun tuziladi va kafedrada saqlanadi.

6.4. O‘quv natijalari ikki yilda bir marta ish beruvchilar va bitiruvchilar baholovi asosida ko‘rib chiqiladi.

VII. MANFAATDOR TOMONLAR ISHTIROKI

7.1. Talabalar ishtiroki

7.1.1. Talabalar fikr-mulohazalari har semestrda tizimli so‘rovnomalar orqali to‘planadi;

7.1.2. So‘rovnoma natijalari kafedra darajasida tahlil qilinadi va chora-tadbirlar belgilanadi;

7.1.3. Talabalar vakillarining ta’lim dasturi muhokamalariga jalb etilishi ta’minlanadi.

7.2. Ish beruvchilar ishtiroki

7.2.1. Amaliyot bazalari ta’minlanadi va hamkorlik memorandumlari rasmiylashtiriladi;

7.2.2. Ish beruvchilar dasturning amaliyligi va kompetensiyalar muvofiqligini baholaydi;

7.2.3. Akademik maslahat kengashiga ish beruvchilar vakillarini jalb etish majburiy hisoblanadi.

7.3. Bitiruvchilar va soha mutaxassislari ishtiroki

7.3.1. Bitiruvchilarni ish bilan bandligi va muvaffaqiyatlarini kuzatib borish yillik monitoring shaklida olib boriladi;

7.3.2. Soha mutaxassislari yangi fan dasturlari va modullarini ekspert baholashida ishtirok etadi;

7.3.3. Bitiruvchilarning fikr-mulohazalari dasturni ikki yillik ko‘rib chiqish jarayonida e’tiborga olinadi.

VIII. MONITORING VA HISOBOT

8.1. Har bir ta’lim dasturi bo‘yicha monitoring quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Vosita	Mazmuni	Davriyligi / Mas’ul
Talabalar so‘rovnomasi	O‘qitish sifati, fan tarkibi, infratuzilma bo‘yicha fikr	Har semestr / TSTB
Fan bo‘yicha hisobot	O‘qituvchi tomonidan o‘quv natijalari va baholash tahlili	Har semestr / O‘qituvchi
O‘quv natijalari tahlili	Erishish foizi, akademik qarzdorlar statistikasi	Har semestr / Kafedra
Ochiq darslar va kuzatuv	Pedagogik mahorat va o‘qitish usullarini baholash	Har semestrda 2 marta / Dekan

Ish beruvchilar baholovi	Kompetensiyalar va mehnat bozori muvofiqligini tekshirish	Yiliga 1 marta / Kafedra
Bitiruvchilarni kuzatish	Ish bilan bandlik va sohadagi muvaffaqiyatlar	Yiliga 1 marta / Kafedra
Dastur bo‘yicha yillik hisobot	Barcha ko‘rsatkichlar yakuni, takomillashtirish taklifi	Har yil / Dastur koordinatori

8.2. Yillik hisobot kafedra majlisi va institut Kengashida muhokama etiladi. Hisobotda kuchli tomonlar, zaifliklar va keyingi yilga takomillashtirish choralari ko‘rsatiladi.

8.3. Monitoring natijalari asosida tuzilgan chora-tadbirlar rejasi O‘quv-uslubiy boshqarmada ro‘yxatga olinadi va bajarilishi nazorat qilinadi.

IX. PROFESSOR-O‘QITUVCHILAR SIFATINI TA’MINLASH

9.1. Har bir o‘qituvchi o‘zi olib boradigan fan doirasida quyidagi sifat talablariga javob berishi shart:

9.1.1. sillabusni belgilangan standart asosida tuzish va semestr boshida talabalar bilan o‘rtoqlashish;

9.1.2. fan bo‘yicha o‘quv natijalari va baholash uyg‘unligini ta’minlash;

9.1.3. belgilangan vaqtda baholash natijalari bilan HEMIS tizimiga ma’lumot kiritish;

9.1.4. talabalar fikr-mulohazalariga asoslanib o‘qitish usullarini takomillashtirish;

9.1.5. semestr yakunida tahliliy hisobot tayyorlash.

9.2. O‘qituvchilarning professional rivojlanishi kafedra mudiri tomonidan yillik reja asosida tashkil etiladi va TSTB tomonidan nazorat qilinadi.

X. SILLABUS STANDARTI

10.1. Har bir fan uchun sillabus quyidagi majburiy bo‘limlarni o‘z ichiga oladi:

10.1. 1. fan haqida umumiy ma’lumot (nomi, kodi, kreditlar soni, o‘tkazish semestri);

10.1.2. fan bo‘yicha o‘quv natijalari (dastur O‘N bilan bog‘lanishi ko‘rsatilgan holda);

10.1.3. o‘qitish usullari va yondashuvlari (qanday o‘tiladi);

10.1.4. baholash tuzilmasi (nazorat turlari, ball taqsimoti, o‘tish chegaralari);

10.1.5. dars jadvali va mavzular ro‘yxati;

10.1.6. tavsiya etilgan adabiyotlar (asosiy va qo‘shimcha);

10.1.7. akademik halollik talablari.

10.2. Sillabus kafedra majlisida ko‘rib chiqiladi va dekan tomonidan tasdiqlanadi. Tasdiqlangan sillabus semestr boshida institutning elektron tizimiga joylashtiriladi.

XI. HUJJATLASHTIRISH VA ARXIVLASHTIRISH

11.1. Ta’lim dasturi bo‘yicha quyidagi hujjatlar to‘planadi, saqlanadi va mavjudligi taʾminlanadi:

Hujjat turi	Saqlash muddati va mas’ul
O‘quv reja (ishchi)	Doimiy / Kafedra
Fan dasturlari va sillabuslari	5 yil / Kafedra
Baholash natijalari (vedomost)	5 yil / Dekanatda va O‘quv-uslubiy

	boshqarmada
Talabalar so‘rovnomasi natijalari	3 yil / TSTB
Ochiq dars bayonnomalari	3 yil / Kafedra va Dekantda
Ish beruvchilar fikri protokollari	3 yil / Kafedra
Yillik tahliliy hisobotlar	Doimiy / Kafedra va O‘quv-uslubiy boshqarmada
Chora-tadbirlar rejasi va ijrosi	5 yil / Kafedra va Dekantda
5 yillik istiqbolli reja va monitoring	Doimiy / Kafedra va O‘quv-uslubiy boshqarmada

11.2. Barcha hujjatlar elektron shaklda (HEMIS yoki muassasa serveri) va qog‘oz shaklda saqlanadi.

XII. YAKUNIY QOIDALAR

12.1. Mazkur hujjat institutning sifatini ta’minlash siyosatiga qo‘shimcha hujjat bo‘lgani bois unga zid qoidalar qo‘llanmaydi.

12.2. Hujjat institut Kengashi tomonidan tasdiqlanadi va kamida ikki yilda bir marta ko‘rib chiqiladi.

12.3. Har bir ta’lim dasturi uchun ushbu hujjat asosida qo‘shimcha dasturga xos hujjatlar (baholash qoidalari, sillabus namunaviy shakli) ishlab chiqilishi mumkin.

12.4. Hujjat institutning rasmiy web-saytida va HEMIS tizimida e’lon qilinadi.